



## CHOL VA DENGIZ (ERNEST XEMINGUEY)

*Kaxarova Madina Baxodirovna*

Fulbrayt granti sohibasi, Buxoro davlat universiteti, “Tarjimashunoslik va lingvodidaktika” kafedrası tarjimashunoslik va ingliz tili o’qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqola adabiy tahlilga tayangan bo’lib, Ernst Hemingueyning “Chol va dengiz” asarida so’z ifodasi, badiiy talqin, uslubiy bo’yoqlar tahlili o’rin olgan. Adabiyotning psixologiya va diniy qarashlar bilan chambarchas bo’g’liqligi yoritilgan. Asar stilistikasi va semantikasi izchil tafsirlangan. Adabiy tahlil muallifning yangi qarashlari va izohlari bilan boyitilgan.

**Kalit so’zlar:** adabiyot, adabiy tahlil, chog’ishtirma tarjimashunoslik, stilistika, semantika, psixologiya, dinshunoslik, lingvodidaktika.

Ernest Xeminguey o’zining noyob uslubi va o’quvchining e’tiborini torta olishi qobiliyati bilan ajralib turuvchi buyuk ingliz adibidir. U hayot-mamot masalasini va inson irodasini o’ziga xos noyob buyoqlar bilan tavirladi. “Chol va dengiz” asari aynan shu inson irodasi, positivlik, hayotga chanqoqlik bilan intilish kerakligini kuylagan motivatsion va betakror kuychi bo’ldi.

Asar bir vaqtlar buyuk dengizchi bo’lgan, dengizda umrini xalq xizmatida baliq ovlab o’tqirgan yarim dunyoni dengiz kezib o’tqizgan, mohir va jasur dengizchi chol haqida gap ketadi. Uning ismi Santyago. Xalq u qariganida u ko’rsatgan mashhur baliq ovi mahoratini, insonlar oilasini beminnat sifatli va halol rizq bilan ta’minlaganini unutishgan. U so’nggi bor dengizga baliq oviga chiqib o’tmish kunlaridagi g’alabalarini va nashidalarini eslab, dengizni qo’msab qo’liga garpun olsa, uni talanti va mahoratiga shubha bilan qarab qo’lidan hech nima kelmaydi deb insonlar uning ustidan kuladi. Uning dengizga chiqishdan boshqa hayotda zavqi qolmagan. Dengiz cheksizlik, erkinlik, odamlar orasidagi keraksiz tashvishlardan xoli sokin boshpana sifatida tasvirlanadi. Baliqchilik uning o’zligi. Ovsiz va dengizsiz u o’zligini yo’qatgan. U insonlarga kerakli bo’lishni xoxlaydi. Hatto ba’zi yoshlar achinib ham qarashadi unga. Bir bolaning rahmi keladi: shundoq nuroniy cholning og’ir garpunlarni ko’tarib ovga chiqayotganiga. Asar ko’p qismi bola va chol o’rtasida suhbat dialog sifatida beriladi. Asar muxtasar va ma’noli. Adib juda global muammolarni, ijtimoiy masalalarni va ichki kechinmalarini juda mohirlik bilan, lo’nda, voqealarni izchil tasvirlash orqali bayon qila olgan. Yozuvchi talanti o’zi xoxlagan fikrlarini to’g’ridan to’g’ri aytmay, qahramonlarining harakatlari orqali asarini qurgan. Qashshoqlik chol yashagan orol xususiyati-bu global muammo. BMT hozirda kurashayotgan yana bir muammo-bu ochlik. Dengiz va tabiat insonni cheksiz rizq bilan ta’minlaganda insonlarni ochlikdan azob chekishi paradoks holatdir.

Adib cholni mashhurlikka aram ilojsiz shaxs sifatida emas, xalqni o’ylaydigan oliyjanob qalbli, dengizni va uning mavjlarini tuhsunadigan go’zal ruhli, qizini va yordamchisini kelajagini o’ylaydigan mehribon, g’amxo’r va befarq emas ma’suliyatli shaxsligini sezish qiyin emas. U ustidan kulgan, kamsitgan yoshlarga qo’pollik qilmaydigan darajadagi tushunchasi keng, axloqli va ama’naviy boy inson. Adib ma’naviy boy inson bo’lish uchun institutda o’qimishli bo’lish shartmas, Alloh inson qalbiga iymon bersin, inson iymonidan quvvat olib Allohga tavakkal qilib jasorat ko’rsatsin va ojizlarga rahnamo bo’lsin degan fikrni olg’a suradi va hayot uchun kurashish zavqini ko’rsatadi. Hayot kurashdan iborat. Kurash tugashini kutib emas kurashni o’zidan zavq olib yashash kerak deganday so’zlaydi. Insonga aql ham matonat ham hassoslik



ham kerak. Ehtimol bu chol obrazi Ernest Hemingueyning ideal inson yoki jamiyatda yetuk aqli g'amxo'r insonning timsolidir. Ehtimol adib yashash uchun jismoniy kuch emas faqat insonlarga beriladigan idrok, aql, barcha qobiliyatlarini ishga sola olish firkinini olg'a suradi. Jism zaifligini muhimi ruh quvvati yengadi demoqchidir. Chol yillar osha irodasini charxlagan. Endi bolani shogirdlikka oldi. Avloddan avlodga qoluvchi qadriyatlar va donolik ham aks etgan asarda. Asarning tili oson. Ortiqcha pafoslar va "gulli til" yo'q. Shu oddiyligi uchun ham asar o'quvchi qalbiga yetib boradi. Baliqchilik qadriyatlarini ona tabiatni avaylab ne'matlaridan bahramand bo'lish fikri bor. Asarda asosan ikki qahramon bor va bu adibga keng inson va jamiyat muammolarini tasvirlashga yetdi. Ko'proq chol bola bilan emas o'zi bilan muloqot qiladiganga o'xshaydi.

Asar kulminatsion nuqtasi bu nahangni ovlash va uni hujumi sahnasidir. Xavf katta - tajribali ovchi sifatida chol buni biladi. Lekin u baliqni shunchaki qo'yib yubora olmaydi. Bu ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi simvolik jang. Adib xavf va yovuz insonlar har qancha kata bo'lmasin ularni yengish uchun so'nggi tomchi qon qolguncha kurashishga undaydi. Asarni yuzaki o'qigan o'quvchi baliqni oddiy baliq deb uylaydi. Navoiy asarlarida bod ava yor Allohning timsoli bo'lganidek Ernst Heminguey chol va baliq olishuvida shunday simvolizmdan foydalandi. Lekin uni o'z fikri bilan sharhlamadi. Badiiy adabiyotning vazifasi ijtimoiy muammolarga shaxs muammolariga yechim topish inson ruhini quvvatlash va estetik zavq uyg'otishdir. Bu asar ham shunchaki voqeadan iborat emas u o'quvchilarda zavq uyg'otadi. Topishmoqni siz uchun birov yechib qo'ysa uning qizig'i bo'lmaydi. Xuddi Gabriel Garsia Markes "Yolg'izlikning yuz yili" asarini kino qilishga qo'ymaganida uning qahramonlarini har bir kitobxon o'z dunyosi tasavvurida o'zgacha tasvirlashining xoxlaganidek, Ernest Xeminguey ham bu olishuvni ramziyligini ochmadi uni tushunish huquqini o'quvchiga berdi. Baliq bilan jang juda mashaqqatli va uzoq davom etadi. Bir joyda muallif "jang to'rt soatdan buyon davom etmoqda ammo baliq hali ham tetik" deydi. Chol quvvatsiz tanasi bilan qanday qilib to'rt soat chidadi? Yana og'ir temir garpun bilan qayiq ham oddiy cho'kib ketish va o'sha baliqqa o'zi yem bo'lishi ehtimoli katta. Ernst Xeminguey xristian. Baliq bu dinda Iso alayhissalom timsoli. Lekin asrda baliq tajovuzkor. U shunchaki baliq nega chol bilan olishadi? Qochib ketsa bo'ladiku. U nahang. U ham chol bilan tepa-teng olishadi. Bunda ovchining ovi o'zidan kuchli. Lekin o'zidan qudratli raqib dushmani chol yengadi. Yillar osha to'plagan tajribasi yo jasorati uchun emas. U e'tiqodi kuchliligi uchun yengadi. Ezgulik yovuzlikni ustidan qozonadigan e'tiqodi uchun.

Adabiyot ruh va psixologiya bilan bog'liq. Omadli va mashhur adiblar esa o'tkir psixolog va filosof bo'lishadi. Ular o'z nuqtai nazarini baliq oviga o'xshash o'ta ta'sirli voqealar bilan tasvirlashga usta. Kitobni ingliz tilida mutolaa qilgan kitobxon so'z boyligi til ko'nikmalari ortadi. Chol fikri teran inson. Atrofidagilarning shuuri anglab yetmaydigan darajada erkin va mulohazakor shu yoshida ham yorqin orzulari bor. Qalbi bolalardek sof. Uning yoshida boshqa qariyalar bunday go'zal ruhli va harakatchan emas. Yillar o'tgan, u o'zini ruhiy navqironligi va insoniyligini yo'qatmagan. Bir joyda u "baliq ham mening do'stim" deydi. Ehtimol baliq bu uning do'st ko'ringan ammo tajovuzkor insonlarning timsolidir.

Majoziylik kitob uslubi, xuddi "Kalila va Dimna", "Zarbulmasal" asarlaridagidek. Oyni va yulduzlarni ovlashga insoniyat majbur emas, shunisiga shukr deydi va qo'lga noyob turdagi baliqni ko'rib hayratlanadi. Xudo yaratgan shunday noyob turni, go'zallikni o'ldirganidan afsuslanadi. U baliqni tabiatning nodir va kamyob turlarini, planetani, ekotizimni inson ko'z qorachig'idek asrash kerakligini tusunib yetadi. Hamma ham unday vijdonlik va tushunadigan emas. Ehtimol adib o'zining shaxsiyatini va ichki kechinmalarini shu qahramoniga jo qilgandir? Asarda shunchaki voqealar xronologiyasini emas, har insonni chuqur mushohada qilishga undaydigan fikrlari yotadi. Hayot va in'omlar, tabiat va umr cheksiz undan zavqlanishni har kim ham bilmaydi. Inson ko'proq moddiy manfaatlarga qaram bo'lib qolgan. Qishloqdoshlari uni



baliqni ochlikdan tushishga chiqdi deb uylashadi. Aslida umri sevimli ishi va dengizda o'tgan inson dengizni qo'msashini, ovda o'tgan umri davomida u nafaqat moddiy balki ma'naviy ozuqa olganini, ruhi dengizda erkinlashib o'tkinchi dunyo materializmini unutilishga va Allohga yakkama yakkama hamsuhbat va yo'ldosh bo'lishiga o'quvchini guvoh qiladi. Yonidagi bola uchun u bir maktab. Xulq atvori, jasorati, hunaridan tashqari kimsasiz dengiz oy va yulduzlar kabi hammaga ma'lum lekin ko'pchilik e'tibor bermaydigan tabiat hodisalariga qarab zavqlanishi, hayotni sevishi va bu yo'ldagi stereotip qarashlarga insonlar o'rnatgan psixologik bloklarga e'tibor bermay ozodlik nashidasini surish kabi xususiyatlari ham bola uchun saboq.

Asarni har xil nuqtai nazar prizmasi ostida qarash tahlil qilish mumkin. Baliq bu halol luqma. Chol halol luqma mashaqqatidan qo'rqmay mehnat qiladigan insonlar obrazi hamdir. Kitob kitobxon qalbida dengiz, tabiatgagina emas, baliqchilik kasbiga ham mehr uyg'otadi. Hayotida bir marta bo'lsa ham dengizga chiqishi, baliq ovlash kabi istaklar tug'iladi. Kitob mutolaa qiluvchilar hayotida zavq olib kiradi. Uni o'qir ekansiz, uyda qulay divanda emas, cheksiz ummonda, cheksiz mavjlar, shamol, baliqlar, ko'kragizga tegadigan xush yoquvchi erkinlikda tashvishlardan ozod bo'lib suzib yurasiz go'yo. Kitob o'qiganda bu kitob ekanligi sezilmaydi. Bu xuddi hayotda bo'layotgandek. Xuddi o'sha qayiqda siz ham bordeksiz. Katta baliq hujum qilganida siz ham xavotirlanib qolasiz. Ernst Xeminguey oddiy satrlar orqali shunday kechinmalarni va taassurotlarni millionlab o'quvchilarga yetkaza oldi. Hamma dunyoda yaratilgan adabiyotlar ham o'quvchi olqishiga sazovor bo'lgan emas.

Shu asari yozuvchiga Nobel mukofoti olib keldi. "Chol dengizda hech qachon yolg'iz qolmasligini sezdi" deydi adib. O'sha orolcha ahli qashsholikka ko'nikkan. Bola doim unga yordam beradi uy ishlarida ham, baliq ovida ahm baliqlarga xo'rak taxlaydi. Ular beysbol haqida baliq ovi haqida uzoq suhbatlar quradilar. Chol yol'gizlikka ko'nikkan. U dengizni shu qadar yaxshi ko'radiki, muallif "u ayol kishi eslagandek entikib qo'ydi" deydi. Yolg'izlikda ahsulalar aytib kuylaydi. Santyago dengizda ysashovchi barcha baliqsimon maxluqotlarni biladi va ularga rahmdil yumshoq munosabatda bo'ladi. U Alloh yaratgan baliqlar bor men yolg'iz emasman deb uylaydi. Odamlar orasida yashash baliqlar orasida yashashdan ham yolg'izroq vabeshavfqatroq. Har holda baliqlar uni kamsitmaydi va ozor bermaydi. Aksincha ularni tomosha qilish zavq olsih mumkin. Chol o'zi ovlayotgan baliqqacha rahmi keladi. U yashashi uchun baliq o'lishi kerakligidan. Shunchalik qalbi mehrlil. Baliq nihoyatda chiroyli tasvirlangan -u tunets. Burni beysbol bitasidek uzun. Baliq kuchliligidan qayiqni dengiz ichiga tortib ketadi. Qayiq kichkina va chol ojiz. Lekin ovni qo'ldan chiqargisi yo'q. Tor'st soatdan keyin baliq aylanadi va suv yuziga chiqadi charchaganidan. Chol ham charchaganidan ko'zlarida qora halqalar aylanadi va bor kuchi bilan nayza sanchib jangni tugatadi. Baliqni qayiqqa boylagach qon hidiga akula suzib keladi va cholni o'z o'ljaga aylanadi. Akulalr kelaveradi birinchi akulani nayza bilan, keying ikkita akulani pichoq bilan, ulardan keyingisini to'qmoq bilan o'ldiradi. O'z soatlab tunets bilan olishib charchagan, endi ko'plab akulalr hujumiga duchor bo'lgan chol bu so'nggi akulalr emasligini qon hidi ularni cheksiz miqdorini unga olib kelishini, baliq tugasa o'zi sog' chiqmasligini biladi. Akulalr galasi yana hujum qiladi ularni rumple bilan to'qmoq bilan urib qaytarib turadi chol lekin tunetsni eti qolmagach, ular o'lja qolmaganini bilgach qaytib ketadi. Baliq qayiqqa bog'langani uchun suyagi, dumi qolgan edi. Bola cholni jangdan qonab ketgan kaftlarini ko'rib yig'laydi. U chol omad olib keladi deb kelajakda ko'p ovga chiqishni uylaydi. Cholni ruhlantiradi. Turistlar va odamlar ertalab qayiqdagi bahaybat baliq suyaklarini ko'rib hayron qolishadi lekin turistlar tushunmaydi. Odamlar tushunadi qanday ayovsiz kurash bo'lganini. Asarda diniy atama va marosimlarr etiqodlarning ta'siri juda seziladi. Manolining ota onasi chol haqida hukm chiqarishayotgnida qirq raqamini esga olishadi. Qirq raqami bu Iso Masih shayton bilan kurashib yenggan davr. Nahanglar ham shayton timsolidir. Inson hayotda yashash uchun kurashib riziqini terayotganda shaytonlar kelib uni o'z saltanatiga olib



ketishmoqchi bo'lishadi. Lekin chol xudoga ishonmaydi va bola ham cholga sig'inganday bo'ladi. Bu yerda endi paradoks hodisasi bor. Agar ular e'tiqodsiz bo'lsa yaratganing yaratgan narsalariga mehr va Iso payg'ambar haqidagi etiqodlar qayerdan keldi? Adib shu o'rinda sirli qoladi. Har qanday e'tiqodsiz insonning ham mehribon yaratgan Allohi qo'llab turibdi degan tushunchani ham tushunamiz.

**Adabiyotlar:**

1. "Chol va dengiz" Ernst Heminguey, 1952.
2. Кахарова М. Б. Boosting education quality is not myth anymore (from personal experience) // Молодой ученый. – 2016. – №. 14. – С. 544-546.
3. Kaharova Madina Bakhodirovna. Perceptions of stress and the ways in which graduate students dealt with stress in the USA and Uzbekistan institutes // Проблемы педагогики. 2017. №5 (28).
4. Kaharova Madina Bakhodirovna. Group dynamics and the role play activities to raise awareness on social issues in the ESL classes // Проблемы педагогики. 2017. №5 (28).
5. Kaharova Madina Bakhodirovna. TESOL AND TETE INTERNATIONAL PROGRAMS RECOMMENDATIONS FOR TRAINING AND ORGANIZING SUCCESSFUL LESSONS. Asian Journal of Multidimensional Research. pp. 387-391. SSN: 2278-4853 Vol 10, Issue 10, October, 2021.
6. Ahrorov Botir Baxodirovich. Some teaching techniques recommended by TESOL organization trainers and community to facilitate and conduct EFL lessons. "IMPROVING THE QUALITY AND EFFECTIVENESS OF PRIMARY EDUCATION: STRATEGY, INNOVATION AND BEST PRACTICES" INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE. Bukhara State University, Uzbekistan. p. 462. 20<sup>th</sup> Sep., 2021. In cooperation with Higher Education Ministry and Innovation Ministry.
7. Kakharova Madina Bahodirovna, "INTERNATIONALIZING UNIVERSITIES AND STUDIES", *IEJRD - International Multidisciplinary Journal*, vol. 7, no. 1, p. 7, Jan. 2022.
8. Ahrorov Botir Bakhodirovich. (2022). Humanitarian values and social justice in Agatha Christie's "Ten little niggers" mystery novel. *Eurasian Scientific Herald*, 5, 96–99. Retrieved from <https://geniusjournals.org/index.php/esh/article/view/615>